



MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TA’MAL TOSHINING QO‘YILISHI

Toshmirzayev Mahmud

DTPI 4-kurs Tarix yo‘nalishi talabasi

Mavzu Birinchi Prezident I.Karimov faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani uchun, avvalo, 2016 yilda uning vafoti munosabati bilan xalqimiz qanchalik qayg‘urganini eslab o‘tish o‘rinlidir. Chunki Birinchi Prezident xalqimiz yuragidan chuqur joy olgan, uning ardoqli farzandiga aylangan edi. Yurtning katta-kichigi u bilan faxrlanar edi. Bunga u o‘zining fidoyiligi, yurti va xalqini jondan sevganligi, uning tinchligi, farovonligi va ravnaqi yo‘lida sabot bilan kurashganligi, o‘tkir aql-zakovat egasi bo‘lganligi, mamlakatni keng taraqqiyot yo‘liga olib chiqqanligi tufayli sazovor bo‘ldi.

Islom Karimov doimo xalq orasida bo‘ldi, xalq dardi bilan yashadi. Oliy ma‘lumotli muxandis-mexanik va iqtisodchi sifatida korxonada mutaxassisligidan oliy lavozimlarga bo‘lgan bosqichlarni birma-bir bosib o‘tib, o‘z ish faoliyati davomida katta rahbarlik va tashkilotchilik qobiliyatini namoyon etdi. Fidoyiligi va qat‘iyati, el-yurt dardini odamlarning tashvish va muammolarini, ularning talab va manfaatlarini yurakdan his qilishi bilan kishilarda ishonch va iftixor uyg‘otdi. Ana shu ishonch tufayli, u 1989 yilning iyunidan respublikaning Bosh rahbari etib saylandi. O‘sha davrdagi vaziyatning o‘ta qaltisligini odamlar yaxshi eslashadi. Qo‘shni mamlakatlardagi fuqarolik urushi, qon to‘kish, mamlakatlararo, konfessiyalararo mojarolar bu yerda ham yuz berish xavfi yo‘q emasdi. Dono rahbar xalqimiz va mamlakatimizni bunday achinarli qismatdan saqlab qoldi. Bunga uning voqealarni oldindan ko‘ra bilish qobiliyati, kuchli irodasi va qat‘iyati madadkor bo‘ldi.

Aqli rasolar e‘tirof etganidek, aynan o‘sha davrda xalqimiz Islom Karimov timsolida mard, bukilmaz iroda egasi, sodir bo‘layotgan favqulodda murakkab hodisalarning mohiyatini davlat manfaatlarini nuqtai nazaridan ko‘ra oladigan, o‘z Vatani va xalqi, har bir yurtdoshining taqdiri uchun alohida mas‘uliyatni his eta oladigan haqiqiy rahbarga ega bo‘ldi. Va bu ishonch uning keyingi 25 yil davomida Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentligi davomida to‘la va yuksak darajada o‘z isbotini topdi. U dono rahbar, o‘tkir aql – zakovat egasi sifatida O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyati va bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurishning chuqur o‘ylangan strategiyasini ishlab chiqdi va uni



amalga oshirdi. Bu bilan u buyuk davlat arbobi sifatida mamlakatimizda va xalqaro maydonda yuksak obro‘-e‘tibor qozondi. Xalqimiz istiqlol yillarida erishilgan olamshumul yutuqlar va natijalarni mamlakatimizning Birinchi Prezidenti nomi va faoliyati bilan uzviy bog‘liq deb bildi.

Islom Karimov ilg‘or nazariyotchi, aqli raso siyosat arbobi sifatida qadrlı inson edi. Uning xalqaro nufuzli yig‘inlarda o‘ktamlik bilan so‘zlagan ma‘ruzalari xalqlar o‘rtasida totuvlik, mamlakatlararo yaxshi qo‘shnichiik va o‘zaro hamkorlik, tinchlik va barkamollikka rahna soluvchi xavfni sinchkovlik bilan oldindan ilg‘ay olish va uni bartaraf etishga da‘vat tuyg‘ulari bilan to‘yingan bo‘lar edi. Va buning to‘g‘riligini, haqqoniyligini barcha e‘tirof etar edi.

Hurmatli Birinchi Prezidentimiz tub negizida boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, vujudga kelayotgan qarama-qarshilik va mojarolarni faqatgina tinch, siyosiy yo‘l bilan hal etishga asoslangan tinchliksevar siyosat mujassam bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosati konsepsiyasini ishlab chiqdi va amalga oshirdi va mintaqamizda hamda butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlashga ulkan hissa qo‘shdi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday ta‘kidlaydi: “Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda **“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta‘lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”**, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta‘lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yamiz, ular jismoniy va ma‘naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Uchinchidan, o‘g‘il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish, ularda tadbirkorlik ko‘nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta‘minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz.



Bir soʻz bilan aytganda, bola tugʻilganidan boshlab, 30 yoshgacha boʻlgan davrda uni har tomonlama qoʻllab-quvvatlaydigan, hayotda munosib oʻrin topishi uchun koʻmak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

Dunyo tajribasi shuni koʻrsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga oʻn, yuz barobar koʻp foyda keltiradi.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino, bundan ming yil oldin **“Dovyurak va botir insonlar kelajakda sodir boʻladigan qiyinchiliklardan qoʻrqmaydi”**, deb bejiz aytmagan.”[1]

Tarixga, maʼnaviyatga munosabat masalalarida ham I.A.Karimov ilgari surgan gʻoyalar gʻoyat ibratlidir. Masalan, uning fikricha, “Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir. Tarixni bilmay turib, mafkuraning falsafiy negizlarini anglab boʻlmaydi. Chunki mafkuraning falsafiy asoslari oʻz davrida tarixiy haqiqat tufayli tugʻilgan”. Natijada diyorimizda yashab oʻtgan ulugʻ ajdodlarimiz faoliyati, xalqimizning ezgu qadriyatlariga odilona hamda munosib baho berildi. Azizlarimizning ilmiy-madaniy merosi odilona oʻrganilib, xalqimizga qaytarildi. Ularning qadamjolari obodonlashtirilib, qutlugʻ ziyoratgohlarga aylantirildi.

Birinchi Prezident Islom Karimov yoshlar masalasiga alohida eʼtibor berar edi. Mamlakatimizda taʼlim sohasida, yetuk kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilgan islohotlar ana shu eʼtibor va gʻamxoʻrliklar sirasiga kiradi. Oʻzbekistonning dunyodagi nufuzli xolis ekspert va kuzatuvchilar, taniqli mutaxassislar tomonidan eʼtirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida shakllangan oʻziga xos taʼlim modeli davlatimizning kadrlar tayyorlash borasidagi uzoq va davomli maqsad-manfaatlarini oʻzida aks ettiradi. Bugungi kunda izchil amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi Birinchi Prezidentimizning yoshlarimizni, dunyoda hech kimdan kam boʻlmay, sogʻlom va barkamol etib voyaga yetkazish haqidagi yaxlit taʼlimotining muhim amaliy yoʻnalishidir. Buning amaliy natijalari esa xalqaro sport musobaqalarida, koʻrik-tanlovlar, koʻrgazmalar, ilmiy anjumanlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda. Yoshlarimiz oʻz kuch-qudrati, intellektual salohiyati, isteʼdodlarini namoyish qilib, yuksak maqtovlarga sazovor boʻlishmoqda, mamlakatimizning xalqaro dovrugʻini olamga yoyishmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson omiliga eʼtibor ustuvor masalaga aylanganini alohida eʼtirof etish oʻrinlidir. Istiqlool sharofati bilan xalqimiz oʻz taqdirini oʻzi belgilashga muvaffaq boʻldi, taraqqiyot yoʻlimizning “oʻzbek modeli” ishlab chiqildi. Vatanimizda inson huquq va manfaatlarini toʻla taʼminlanib aholi



turmush farovonligi tobora yuksalib borayotgan maskanga aylandi. Hayotimiz to‘la tenghuquqlilik, totuvlik va inoqlikka asoslanadi. Vatan Qomusida “O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”, deb aniq belgilab qo‘yilgan. “O‘zbekiston xalqi” tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlik uchun ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Respublika aholisi o‘rtasida ko‘pchilikni tashkil qiladigan o‘zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o‘z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o‘ziga xos madaniy-ma’naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o‘zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas’ul bo‘lishdan ham iboratdir”. Bunday muhit Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g‘oyalarni hamkor va hamjihat bo‘lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko‘maklashish maqsadida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilgan edi. Ushbu jamiyat tashkiloti hozir 140 dan ortiq markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi.

Bugungi kunda Yer yuzida 6 mlrddan ziyod aholi mavjud. O‘zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Millatlararo totuvlikning haqiqiy barometri – xalq fikri. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi o‘tkazgan tadqiqot so‘rovlarida aholining ko‘pchiligi mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik kuchayganligini qayd etishgan. Masalan, so‘ralganlarning 94,5 foizi “O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar yaxshiligining asosiy omili O‘zbekiston Prezidenti olib borayotgan milliy siyosatda”, deb hisoblashgan. Yana shuni aytish kerakki, “O‘zbekiston Qahramoni” oliy unvoni bilan taqdirlanganlar orasida o‘zbeklar va qoraqalpoqlar bilan bir qatorda tojik, qozoq, rus, ukrain, koreys va arab millati vakillari bor. Bunday bag‘rikeng milliy siyosat dunyo tajribasida kam. Hozir mamlakatimizda 8 tilda gazeta va jurnallar chop etilmoqda. Teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar 11 tilda olib borilmoqda. Mamlakatimizda o‘rta, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida 7 tildan barobar tenglikda foydalanilmoqda. Bugun oliy o‘quv yurtlarida 35 millatga mansub professor-o‘qituvchilar faoliyat olib bormoqdalar. Mamlakatimizda nafaqat millatlararo, balki dinlararo bag‘rikenglikka ham to‘la amal qilindi. Chunki bu yerda qadim davrlardan buyon turli millat, til, urf-odat turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma – xil dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar yashab keladi. Bu yurt geografik nuqtai nazardan muhim



savdo yo‘llari ustida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan madaniy aloqalar qilgani diniy va madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatib, o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Respublika Konstitutsiyasining 31 moddasi vijdon erkinligini kafolatlaydi. 1991 yildayoq “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqida”gi Qonun qabul qilingan edi. Bu huquqiy xujjatlar asosida davlat dindorlarning diniy ishlariga aralashmagan holda vijdon erkinligiga imkon yaratadi. Oliy xulqli shaxsni tarbiyalashda dinning o‘ta muhimligi tan olinadi. Bir vaqtning o‘zida davlat diniy siyosatlashtirishni qoralaydi, ekstremistik va fundamentalistik oqimlarning vujudga kelishining oldini olish choralarini ko‘rmoqda. O‘zbekiston zamini Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatning eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizasiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an’analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni “falsafiy tafakkur beshigi” deb bekorga ta’riflamagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”. Toshkent. 2021.30.12. № 276 (7778).
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, "O‘zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 b.